

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.14636190>

BOSHLANG‘ICH SINFLARDA SINTAKTIK ELEMENTLAR USTIDA ISHLASH KO‘NIKMASINI RIVOJLANTIRISH

Rustamova Zulfiya Xolmirzayevna

TDPU Boshlang‘ich ta‘limda ona tili va uni o‘qitish metodikasi kafedrasida dotsenti

***Annotasiya:** mazkur maqolada boshlang‘ich sinf ona tili darslarida so‘z birikmasi va gap ustida ishlashning vazifalari hamda asosiy bosqichlari haqida fikr yuritilib, boshlang‘ich sinf o‘quvchilarida so‘z birikmasini ajrata olish, gapni to‘g‘ri tuza olish, ulardan nutq paytida to‘g‘ri foydalana olish ko‘nikmalarini shakllantirish haqida, hamda gapda so‘zlarning bo‘g‘lanishi, so‘z birikmasini o‘quvchilarga tushuntirishda foydalanish mumkin bo‘lgan metodlar haqida ma‘lumotlar berib o‘tiladi..*

***Tayanch so‘zlar:** maktab yoshidagi o‘quvchilar, boshlang‘ich ta‘lim, ona tili, to‘g‘ri nutq, so‘z birikmasi, gap, so‘z birikmasi ustida ishlash ko‘nikmasi, gap ustida ishlash ko‘nikmasi, ko‘nikma.*

РАЗВИТИЕ НАВЫКОВ РАБОТЫ НАД СИНТАКСИЧЕСКИМИ ЭЛЕМЕНТАМИ В НАЧАЛЬНЫХ КЛАССАХ

***Аннотация:** в данной статье отражены задачи и основные этапы работы над словосочетаниями и предложениями на уроках родного языка в начальных классах. о формировании умений различать словосочетания, правильно составлять предложения и правильно употреблять их в речи, а также связывать слова в предложении, словосочетаниях Студентам предоставляется информация о методах, которые можно использовать при объяснении.*

***Ключевые слова:** школьники, начальное образование, родной язык, правильная речь, словообразование, предложение, навыки словообразования, навыки построения предложения, навык.*

DEVELOPMENT OF SKILLS FOR WORKING ON SYNTACTIC ELEMENTS IN THE PRIMARY CLASS

Abstract: *this article reflects the tasks and main stages of working on phrases and sentences in native language lessons in primary school. about the formation of skills to distinguish between phrases, correctly compose sentences and use them correctly in speech, as well as link words in sentences and phrases. Students are provided with information about methods that can be used in explanations.*

Key words: *schoolchildren, primary education, native language, correct speech, word formation, sentence, word formation skills, sentence construction skills, skill.*

KIRISH

Ma'lumki, O'zbekiston yoshlar, ya'ni bizning mamlakatimiz. Vatanimiz siyosati ham har tomonlama bizlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilganini barchamiz guvohimiz. Konstitutsiyamizning 41-moddasida bepul umumiy ta'lim olish huquqini biz uchun kafolatlanganligi ham quvonarli holatdir. Yoshlarning bilim olishga bo'lgan huquqi "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ham mustahkamlab qo'yilgan. Biz, ya'ni yoshlar o'z iqtidorimizni va iste'dodlarimizni to'la namoyon qilishga haqlimiz. Ona tiliga oid qarashlarni ko'plab buyuk allomalarimiz asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Misol uchun Abu Nasr Forobiyning yaratgan asarlari ichida "Fanlar tasnifi" yoki "Fanlar tasnifi haqidagi so'z" kitobi tishunoslik masalalariga bag'ishlanganligi bilan ajralib turadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Buyuk alloma tilshunoslikning fonetika, morfologiya, sintaksis, orfografiya, orfoepiya va stilistika kabi bo'limlari haqida dastlabki tushunchalarni bergan. Forobiy sintaksis masalasida so'z birikmasi haqida, nutqning qismlarga bo'linishi, so'zlarning qay holatda birikish qoidalari va hukm bildirishi, so'zlarning birikishi turlari haqida fikr yuritadi. Yana bir buyuk allomalarimizdan biri Mahmud Koshg'ariy o'zining "Devon"i bilan sinxron-qiyosiy tilshunoslikka asos soldi va tilshunoslikning buyuk vakili degan ulug' nomga sazovor bo'ldi. Buyuk mutafakkirlarimizdan biri Alisher Navoiy ham o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida ham tilshunoslikka katta e'tibor qaratgan. Navoiy o'zining bu asarida qiyoslash asnosida turkiy tilning boy va

keng imkoniyatlarga egaligini alohida ta'kidlab o'tadi. Hozirgi zamondagi rus tilshunosi V.V.Vinogradov ham so'z birikmasiga alohida e'tibor qaratadi. Vinogradovning so'z birikmasi nazariyasiga qo'shgan hissasi juda kata bo'lib, so'zlarning bitta tuzilma tarkibida birikish qonuniyatlari to'g'risida bildirgan fikrlari ko'p yillardan buyon turli tillar orasida olib borilayotgan izlanishlarda yetakchi g'oya asnosida e'tirof qilinmoqda. O'zbek tilshunoslaridan Sayfullayeva, Mengliyev, Mirziyayeva kabi olimlar so'z birikmasi hamda gap ustida o'z qarashlarini aytib o'tganlar.

NATIJA VA MUHOKAMA

Eng avvalo, so'z birikmasi nima? Gap nima? degan savollarga javob topib olishimiz maqsadga muvofiq bo'ladi. Chunki bu atamalar boshlang'ich sinf o'quvchilarimiz uchun yangilik hisoblanadi. Boshlang'ich ta'lim jarayoni o'quvchining mantiqiy tafakkur qila olish salohiyati, aqliy rivojlanishi, dunyoqarashi, o'z-o'zini anglash salohiyatini shakllantirishga, jismonan sog'lom bo'lishga, moddiy borliq go'zalliklarini his etishga, go'zallik va nafosatdan zavqlanishga, milliy urf-odatlarini o'zida singdirish va ardoqlash, ularga rioya qilishga o'rgatadi. O'zbekiston Respublikasidagi boshlang'ich ta'lim tayanch o'quv rejasi doirasiga ona tili, matematika, tabiat hamda inson va jamiyat ta'limi sohalari kiritilgan. Ona tili ta'limi o'quvchilarning tafakkur qilish faoliyatlarini kengaytirishga, mustaqil fikrlay olishi, atrofdagilar fikrini anglashi, o'zining fikrlarini og'zaki va yozma ravishda bayon qila olishi, insonlar bilan erkin muloqotda bo'la olish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga yordam beradi. Boshlang'ich sinflar ona tili fanini o'rganishning yetakchi insoniy tamoyili tilning barcha tomonlarini (leksikasi, fonetikasi, grammatikasi, so'z yasalishi) o'zaro bog'liq holda o'rganish hisoblanadi. Ushbu tamoyil tilni yaxlit hodisa sifatida o'rganishni ta'minlaydi va til insonlarning aloqa vositasi ekanini o'quvchilar tushunishlari uchun imkoniyat yaratadi. Bu tamoyil bo'limlar orasidagi mumkin bo'lgan bog'lanishni hisobga olgan holda amalga oshiriladi.

So‘z birikmasi- ikki yoki undan ortiq mustaqil so‘zning tobe grammatik aloqa asosida birikishi natijasida hosil bo‘lgan, borliqdagi narsa va hodisalarning nomini bildiradigan nutq birligi: ignaning ko‘zi, kitobni o‘qimoq, oydin kecha va boshqa. Har qanday so‘z birikmasi birdan ortiq mustaqil so‘zning birikuvidan hosil bo‘ladi. So‘z birikmasini o‘quvchilarga o‘rgatishda interfaol metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Interfaol metodlar o‘z mohiyatiga ko‘ra ta’limiy yoki tarbiyaviy jarayonlarni amalga oshirishda ma’lum darajada samaradorlikka erishishni ta’minlasada, biroq, ularning har biri ta’lim yoki tarbiya jarayonida mahsuldorlikni ta’minlash maqsadida turli imkoniyatlarga ega. Shu sababli o‘qituvchilar interfaol metodlarni tanlashda o‘rganilayotgan mavzu, muammo yoki hal qilinishi lozim bo‘lgan masalaga e’tibor qaratishlari zarur hisoblanadi. So‘z birikmasi mavzusini o‘quvchilarga tushuntirishda quyidagi ta’lim metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi: Bahsmunozara metodi. Metod ikki yoki undan ortiq o‘quvchilar tomonidan muayyan vaqt oralig‘i va qat’iy qoidalarga muvofiq tashkil etiladigan og‘zaki bahs bo‘lib, o‘quvchilarda o‘rganilayotgan mavzu bo‘yicha erkin, asosli fikrlarni bildirish qobiliyatlarini shakllantirishga xizmat qiladi. O‘quv mashg‘ulotlarida bahsmunozaradan foydalanishda mavzuga doir ma’lum masalalar hal qilinadi. Shunday qilib, o‘quvchilarga so‘z birikmasini metodlar orqali o‘rgatish qulayroq bo‘ladi. Albatta, o‘quvchilar so‘z birikmasini o‘rganishgandan so‘ng ularda gap haqidagi taassavurlar paydo bo‘la boshlaydi. Gap o‘zi nima? Gap-so‘z yoki so‘zlar vositasida tushuniladigan, tugallangan fikr. Boshlang‘ich sinflarda ona tili darslarining muhim vazifalaridan biri bu - fikrni ifodalashda gapdan to‘g‘ri foydalanish ko‘nikmasini shakllantirish hisoblanadi. Boshlang‘ich sinflarda gap ustida ishlashni shartli ravishda besh bosqichga ajratish mumkin:

1. Gap yuzasidan grammatik tushunchani shakllantirish ;
2. Gap qurilishini o‘rgatish (so‘z birikmasida so‘zlarning bog‘lanishi ustida ishlash, gapning grammatik asosini, bosh va ikkinchi darajali bo‘laklarning xususiyatlari, yoyiq va yig‘iq gaplar ustida ishlash).

3. O'quvchilarning nutqida gapning maqsadga va ohangga ko'ra turlaridan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish;

4. Gapda so'zlarni aniq qo'llash ko'nikmasini o'stirish;

5. Yozma nutqda gapni to'g'ri tuzib yozish (uni bosh harf bilan boshlash, tinish belgilarini qo'yish) ko'nikmasini rivojlantirish.

Gapni o'rganish va nutqda undan foydalanish ko'nikmasini shakllantirish o'quvchilarning bilimlarini doimiy kengaytirib, boyitib borishga asoslanadi. Boshlang'ich sinflarda o'rganiladigan sintaktik material kam bo'lsa ham, butun o'quv yili davomida, boshqa mavzularga singdirilgan holda o'quvchilar bilan gap ustida ishlab boriladi. Milliy o'quv dasturiga ko'ra,

1-sinf o'quvchilariga Ona tili va o'qish savodxonligi darslarida gap haqida boshlang'ich tushunchalar beriladi. Gap tugallangan fikrni bildirishi, gap so'zlardan tashkil topishi, uning oxiriga ma'lum tinish belgilari qo'yilishi haqida boshlang'ich ma'lumotlar beriladi;

2-sinf Ona tili va O'qish savodxonligi darsida esa o'quvchilar gapdan shu gap kim yoki nima haqida aytilganini va u haqda nima deyilganini bildirgan jumlaning ajratishga o'rganadilar. Aslida gapning grammatik asosi ustida ishlash mana shundan boshlanadi va bu bosh bo'laklarni o'rganishga boshlang'ich tushuncha bo'ladi;

3-sinf gap ustida ishlashning yangi bosqichi hisoblanadi. O'quvchilar gapni tushuncha sifatida o'rganishga o'tadilar. O'quvchilar gapning zarur belgilarni bilib oladilar. Bu bosqichda bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning ta'rifi, ega va kesim tushunchalari kiritiladi. Bu sinfda gapda so'zlarning bog'lanishiga katta e'tibor beriladi. O'quvchilar gapning asosi ega va kesimni ajratadilar, ikkinchi darajali bo'laklarni farqlay oladilar va gapdagi ikki so'z hokim va tobe so'zni, so'zlarning grammatik jihatdan, ya'ni qo'shimchalar orqali bog'lanishni bilib oladilar. Shuningdek, gapning maqsadiga ko'ra turlari, ya'ni darak gap, so'roq gap, buyruq gap hamda his-hayajon gaplar bilan tanishadilar.

4-sinfda o'quvchilar Nutq. Matn mavzusini o'rganish bilan gap haqidagi bilimlarini boyitadilar. Xususan, o'quvchilar matn nutqning yozma shakli ekanligini,

uni qismlarga bo'lish, unga sarlavha qo'yish, reja tuzish mumkinligi haqidagi tushunchlarga ega bo'ladilar. Shunday qilib, o'quvchilarda gap bo'laklari haqidagi tasavvurni o'stirish gapni o'zlashtirishda muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarda gap va so'z birikmasi haqida bilimlar shakllandi, ammo so'z birikmasi uchun qanday so'zlar zarur? So'z birikmasi tarkibidagi so'zlar qanday vositalar yordamida bog'lanadi? Shu asnoda savollar o'quvchilarda paydo bo'lishi mumkin, biz ularga qay yo'sinda javob beramiz? Gap tarkibidagi so'z birikmalarni ajratish ko'nikmasi uzoq mashq davomida shakllantirib boriladi. Buning uchun o'quvchilarning so'z birikmasidan bir so'zning boshqa so'zga tobeligini tushunishga qaratilgan mashqlar tizimidan foydalaniladi.

1. Yoyiq gap hosil qilish. Buning uchun gapning qaysi bo'lagi yoyishni talab qilishini aniqlash. Masalan, daraxtlar gullabdi gapini tahlil qilish uchun berilgan ega va kesim (gapning asosi) ajratiladi, daraxtlar qachon gullashini aytish uchun gapga qanday so'zni qo'shish kerak? Bu so'z gapning qaysi bo'lagi bo'ladi? (Ikkinchi darajali bo'lak). U gapning qaysi bo'lagiga bog'lanadi? (tobelanadi?) (Kesimga bog'lanadi) Qachon gullaydi? (bahorda gullaydi) Gapga egani izohlaydigan yana bitta so'z qo'ying. Qanday gap hosil bo'ldi? (Mevali daraxtlar bahorda gullaydi).

2. Tartibsiz berilgan so'zlar yordamida gapni qayta tiklash. Avval gapning asoslari (ega va kesim) tiklanadi (aniqlanadi), so'ng so'roqlar yordamida ikkinchi darajali bo'laklar (so'z birikmalari) «topiladi», tiklanadi. Masalan, Mashinada terimchi, teradi, paxtani. - Gap kim haqida aytilgan? (Terimchi haqida, Kim? terimchi) U haqda nima deyilgan? (Teradi. Terimchi teradi - bosh bo'laklar). - so'roqlar yordamida so'z birikmasini toping. Nimani teradi? (Paxtani teradi) Nimadateradi? (Mashinada teradi). Keyin gapda so'zlarning qulay tartibi aniqlanadi. (Terimchi paxtani mashinada teradi). Gap ohangi ustida ishlanadi.

3. Tinish belgilarisiz berilgan matndan gaplarni ajratish. Mashqning bu turi ongli bo'lishi uchun har bir gapning bosh bo'laklarini va so'z birikmalarini ajratish lozim. 4. Gapni tahlil qilish va sxemani tuzish. Gap tahlil qilinayotganda dastlab uning asosi ajratiladi, keyin egani izohlovchi ikkinchi darajali bo'lak, kesimni izohlovchi ikkinchi

darajali bo‘lak, boshqa ikkinchi darajali bo‘lakni izohlovchi ikkinchi darajali bo‘lak ajratiladi. Shunday qilib, asta-sekii so‘z birikmalari aniqlana boradi. 5. O‘qituvchi bergan sxema yoki so‘roqlar asosida gap tuzish: kim? kimlarni? Nima qiladi? (Shifokor kasallarni davolaydi). So‘z birikmasi ikki yo‘nalishda olib boriladi: 1) So‘z birikmasiga gap ichida gapning tarkibiy qismi sifatida qaraladi; 2) So‘z birikmasiga predmetning yoyiq nomi sifatida qaraladi, masalan, soat - so‘z, oltinsoat, qo‘l soat, osma soat, elektron soat - so‘z birikmalari. Albatta biz ularga buni oddiy qoidalar asosida, ular tushunishlari oson bo‘lgan talqinda tushuntirib berishimiz kerak. Ya’ni qanaqa: eng avvalo, mustaqil so‘zlarning nutqda bog‘lanishidan so‘z birikmasi hosil bo‘lishini tushuntiramiz va so‘z birikmasi bo‘lishi uchun quyidagi shartlarni bajarishi kerakligini tushuntiramiz: 1) kamida ikkita mustaqil so‘z bo‘lishi lozim; 2) bu so‘zlar ma’no jihatdan mos bo‘lishi kerak; 3) so‘zlarning biri ikkinchisiga ergashishi, ya’ni tobelanishi zarur; 4) qo‘shimcha va yordamchi so‘zlar mustaqil so‘zlarni bog‘lashi kerak; 5) kelishik va egalik qo‘shimchalari hamda ko‘makchilar (ohang ham) so‘z birikmalari tarkibida so‘zlarni bir-biriga bog‘lashga xizmat qiladi. O‘quvchilarimizga shularni esdan chiqarmaydigan qilib, ”bahs-munozara” metodi bilan tushuntirsak ularning so‘z birikmasini o‘rganish koefitsentlari yuqori bo‘lishiga ishonchim komil.

Xulosa qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga ularga umuman begona bo‘lgan atamalarni o‘rgatishda turli metodlardan foydalanish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Chunki ular yosh jihatidan kichik yoshda bo‘lganliklari sababli turli xil o‘yinlarni o‘ynashni, mashg‘ulotlar bajarishni yoqtiradilar. Shuning uchun boshlang‘ich sinflarga mavzularni tushuntirishda metodlardan foydalangan ma’qul.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidan.
2. Masharipova, U. (2021). THE ROLE OF INNOVATION IN CONTINUOUS EDUCATIONAL SYSTEM. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal*, 2021(4), 168-176.
3. Bakiyeva H. (2019) DEVELOPING ARTICULATION OF ELEMENTARY CLASS STUDENTS USING INDEPENDENT WORK METHODOLOGY *European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences* Vol. 7 No. 6, 2019 ISSN 2056-5852 Progressive Academic Publishing, UK Page14
4. Obidjon o‘g‘li, Y. O., & Xolmirzayevna, R. Z. (2023, April). KORPUS–TABIIY TILLARNING MILLIY XUSUSIYATINI SAQLAB QOLISHDA MUHIM INSTRUMENT. In *INTERNATIONAL SCIENTIFIC CONFERENCES WITH HIGHER EDUCATIONAL INSTITUTIONS* (Vol. 1, No. 14.04, pp. 61-64).
5. Rustamova, Z. (2022). LINGUISTIC BASIS OF CREATION OF DIALECTAL CORPUS OF UZBEK LANGUAGE. *Science and Innovation*, 1(8), 1255-1258.
6. Rustamova, Z. (2022). O‘ZBEK TILI DIALEKTAL KORPUSINI YARATISHNING LINGIVISTIK ASOSLARI. *Science and innovation*, 1(B8), 1255-1258.